



**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING DAVLAT ORGANLARI VA  
NODAVLAT-NOTIJORAT TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**O'narov Beknur Abduxalil o'g'li**

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 226-o'quv guruhi kursanti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20507188>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasalarining (JIEM) davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari (NNT) bilan hamkorligini takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish, ularni axloqan qayta tarbiyalash hamda takroriy jinoyatchilikning oldini olishda xalqaro standartlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada tajribasi) o'rganilgan. Tadqiqot natijasida penitensiar tizimda psixologik ishlarni raqamlashtirish (sun'iy intellekt), mahkumlarni band qilish va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** jazoni ijro etish muassasasi, davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, probatsiya, ijtimoiy moslashuv, axloqan tuzatish, mahkum, penitensiar tizim, jamoatchilik nazorati, sun'iy intellekt.

**IMPROVING THE COOPERATION OF PENAL INSTITUTIONS  
WITH STATE BODIES AND NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT  
ORGANIZATIONS**

**Annotation:** This article scientifically and practically analyzes the issues of improving the cooperation of penal institutions with state bodies and non-governmental non-profit organizations (NGOs). International standards (experience of Germany, Great Britain, Canada) in the social adaptation of convicts, their moral re-education, and the prevention of recidivism are studied. As a result of the research, specific proposals and recommendations were developed to expand

**Contact: 99 826 99 56**





cooperation on the digitalization of psychological work in the penitentiary system (artificial intelligence), employment of convicts, and the fight against extremism.

**Keywords:** penal institution, state bodies, non-governmental non-profit organizations, probation, social adaptation, moral correction, convict, penitentiary system, public control, artificial intelligence.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА УЧРЕЖДЕНИЙ ПО ИСПОЛНЕНИЮ НАКАЗАНИЙ С ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ И НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫМИ НЕКОММЕРЧЕСКИМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ**

**Аннотация:** В данной статье научно-практически анализируются вопросы совершенствования сотрудничества учреждений по исполнению наказаний с государственными органами и неправительственными некоммерческими организациями (ННО). Изучены международные стандарты (опыт Германии, Великобритании, Канады) в сфере социальной адаптации осужденных, их нравственного перевоспитания и предупреждения рецидивной преступности. В результате исследования разработаны конкретные предложения и рекомендации по расширению сотрудничества в области цифровизации психологической работы в пенитенциарной системе (искусственный интеллект), трудоустройства осужденных и борьбы с экстремизмом.

**Ключевые слова:** учреждение по исполнению наказаний, государственные органы, неправительственные некоммерческие организации, пробация, социальная адаптация, нравственное исправление, осужденный, пенитенциарная система, общественный контроль, искусственный интеллект.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat-ijro tizimini tubdan isloh qilish, mahkumlar huquqlarini ta'minlash va ularni jamiyatga to'laqonli a'zo sifatida qaytarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. BMTning





jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlov bo'yicha 13-kongressida ham ta'kidlanganidek, jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash bilan bir qatorda tayinlangan jazoni ijro etishning oqilona yo'lga qo'yilishi jinoyatchilikni profilaktika qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida jazoni ijro etish muassasalarida (JIEM) amalga oshirilayotgan bugungi islohotlar asosan mahkumlarni axloqan qayta tarbiyalash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va kelgusida ijtimoiy moslashtirishga qaratilgandir.

Jazoni ijro etish muassasalari o'z zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalarni yolg'iz o'zi bajara olmaydi. Ushbu jarayon boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, vazirliklar (Sog'liqni saqlash, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari), mahalliy hokimliklar, shuningdek, nodavlat-notijorat tashkilotlari (Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, "Intilish" NNT, Kasaba uyushmalari) bilan uzviy hamkorlikni taqozo etadi. Bu hamkorlik axborot almashish, profilaktik tadbirlarni birgalikda rejalashtirish, ijtimoiy, tibbiy, psixologik ko'mak berish va ta'lim-tarbiya jarayonlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar penitensiar tizimida hamkorlik mexanizmlari o'ta taraqqiy etgan. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasida JIEM faoliyatiga ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi xodimlar, ruhoniylar va psixologlar NNTlar nomidan faol jalb etiladi. Ularning qamoqxonalari amalda yuksak texnologiyalar rezervini tayyorlab beruvchi joy bo'lib, ma'muriyat mehnat birjalari bilan ochiq muloqotda ishlaydi. Buyuk Britaniyada qamoqxonalar faoliyati 300 yildan beri Mustaqil Jamoat Kengashlari tomonidan monitoring qilinadi. Qozog'istonda esa Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan "Jamoatchilik Kuzatuv Kengashi" parlament deputatlari va jamoatchilik vakillaridan iborat bo'lib, ular muassasalarga doimiy to'siqsiz tashrif buyurish huquqiga ega. Ushbu xalqaro tajribalar mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini va ochiqlikni ta'minlashda qimmatli manba bo'lib xizmat





qiladi.

O'zbekistonda ham xalqaro standartlar asosida amaliy qadamlar tashlanmoqda. "Usta-shogird" maktablari, "Hunarmand" uyushmasi bilan hamkorlikda mahkumlarga mualliflik mebellari, zargarlik, o'ymakorlik sirlari o'rgatilmoqda. Shunga qaramay, huquqni qo'llash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda hamkorlik aloqalarida ayrim bo'shliqlar mavjud bo'lib, bu o'z navbatida takroriy jinoyatchilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish ishlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida o'tgan yillarda yuzlab takroriy jinoyatlar sodir etilgani kuzatildi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda jazoni ijro etish muassasalarining davlat organlari va NNTlar bilan hamkorligini tizimli takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

**Birinchidan,** jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilayotgan shaxslarni ish bilan ta'minlash borasida "Ishga marhamat" monomarkazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik mexanizmini qonunan mustahkamlash lozim. Mahkumga nisbatan insonparvarlik dalolatnomalarini ko'rib chiqish jarayonida (shartli ozod qilishdan oldin) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi vakillarini majburiy tartibda komissiya tarkibiga kiritish va ozodlikka chiqayotgan shaxsni bevosita Monomarkazlarning o'quv va ishga joylashtirish dasturlariga biriktirish talab etiladi.

**Ikkinchidan,** hozirgi kunda JIEMlardagi Tezkor-qidiruv bo'limi xodimlarining terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan mahkumlar bilan ishlashida maxsus psixologik-teologik ko'nikmalar yetishmasligi kuzatilmoqda. Shu sababli, JIEM tezkor xodimlarini O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi va Davlat xavfsizlik xizmati bilan hamkorlikda maxsus malaka oshirish tizimidan o'tkazish va ongli ravishda radikallashtirishga qarshi kurash bo'yicha





maxsus sertifikatlarga ega bo'lish amaliyotini joriy etish taklif etiladi.

**Uchinchi dan,** muassasalarda mahkumlar soni va psixologlar shtati o'rtasidagi nomutanosiblik tufayli har bir mahkumning individual psixologik portretini yaratish imkoni cheklangan. Ushbu muammoni raqamlashtirish orqali hal etish mumkin. Belarus Respublikasi probatsiya va penitensiar xizmatida joriy etilgani kabi, mahkumlarning psixologik qiyofasini tuzuvchi, stress hamda agressiya darajasini avtomatik tahlil qiluvchi "Sun'iy intellekt" (AI) dasturiy ta'minoti va apparat komplekslarini respublikamiz muassasalariga joriy etish psixologik hamkorlik va diagnostika samaradorligini keskin oshiradi.

**To'rtinchi dan,** jazoni ijro etish muassasalarida tuzalish yo'liga o'tgan mahkumlarni rag'batlantirish borasida Ommaviy axborot vositalari bilan tizimli hamkorlik qoniqarli emas. Mahkumlarni rag'batlantirish tadbirlarini, egallagan kasb-hunarlarini ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa keng namoyish etish jamiyatda sobiq mahkumlarga nisbatan stigmalari (salbiy yorliqlar) va noto'g'ri stereotiplarning yo'qolishiga, ularning ijtimoiy qabul qilinishiga katta xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish muassasalarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan ijtimoiy sherikligini kengaytirish penitensiar tizimning shaffofligini ta'minlaydi. O'zaro integratsiyalashgan profilaktik, ta'limiy va ijtimoiy mexanizmlarning amaliyotga joriy etilishi mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini shakllantirib, yurtimizda qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligini ta'minlashning eng mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi





"Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 445-sonli qarori.

5. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. d-ri ... dis. – Toshkent, 2006. – B. 199.

6. Tadjibaeva D.A. Ichki ishlar organlari jazoni ijro etish xizmati. Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – B. 342-343.

7. Yuldashev M.SH. Mahkumlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi: Ilmiy risola. – T., 2010. – 32 b.

